

AMIR TEMUR SALTANATIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA HARBIY TIZIM

Toshboltayev Islom Bahodir o'g'li.

IIV Surxondaryo akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi.

mamasoatr@gmail.com +998 93 766 99 08

Amir Temurning saltanat boshqaruvi. Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi. Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohni Oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat – devonni devonbegi (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bulardan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot berib turgan. Tashqi va ichki favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oraliqida yomxonalar tashkil etilgan. Har bir yomda 50–200 boshdan ot-ulov tutilgan. 117 Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyandi. Sohibqiron davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan. Uning Qur'oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan. Payg'ambar avlodlari, shayxul-mashoyixlarga hurmati cheksiz edi. Davlatni kuchaytirishda ham aynan shunday kishilarga tayanib ish yuritgan. Suyurg'ol yerlar. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni asosan to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida in'om qiladi. Movarounnahrda tashqari o'z tasarrufidagi barcha viloyat va mamlakatlarni Amir Temur o'limidan biroz

avval o'g'il va nabiralari orasida taqsimlaydi: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ular ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi. Qo'shin tuzilishi. Amir Temur davlat mustaqilligi va muhofaza yo'lidagi ichki va tashqi siyosatida asosan qo'shinga suyanar edi. Shuning uchun ham u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat berardi. Sohibqiron intizomli qo'shin tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini oqilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, 118 qo'shindagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur qo'shiniga chorvadorlar qatori o'troq aholidan ham askar to'plangan. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan tavochi mansabidagi amaldorlar shug'ullanar edi. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalar ham xizmat qilgan. Amir Temur qo'shini son jihatdan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar tuman – o'n minglik, hazora – minglik, qo'shun – yuzlik va ayl – o'nlik birikmalariga bo'lingan. Amir Temur o'n minglik askarni boshqarish uchun tuman og'asi, minglik bo'linmalar uchun

mirihazora, yuzliklar uchun qo'shunboshi va o'nliklar uchun esa aylboshi kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Sohibqiron Sharqda birinchilardan bo'lib qo'shinga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan. Tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo'linmalar tashkil qilingan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan.

Amir Temurning jangga kirish usuli.

Harbiy yurish paytida oldinda xabarchilar, ular orasidan yasovul bo'linmasi, undan keyinroqda manglay – avangard qism borardi. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u "izofa" deb yuritilgan. Amir Temur qo'shinining asosiy jangovar qismlari markaz, o'ng – burong'or va chap – juvong'or qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha qo'riqchi manglay – avangardi, yon tomonida esa bittadan qo'riqchi 119 askariy qo'shilmalar – qanbullar bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism – qo'llardan iborat edi. Sharafiddin Ali Yazdiy qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo'llar janglarda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan. Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'llagan. Xususan, jang vaqtida qo'shin qanotlarini dushman hujumidan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – qunbulning joriy etilishi bo'lgan. Dunyo tarixi haqida gap ketganda Amir Temur nomi bevosita tilga olinadi. Janglarda Amir Temur tuzgan qo'shinining jangovor tartibi va harbiy hiylalari nafaqat o'tgan asrlar davomida, balki hozirgi kunda ham qo'llanilishi buyuk sarkarda harbiy san'atni mukammal o'zlashtirganidan dalolat beradi.

Amir Temur qo'shinlari asosan piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan bo'lsa-da, aksariyat hollarda piyodalar ham uzoq cho'l safarlarida otlar bilan

ta'minlanar, otliq askarlarning katta qismi piyoda tartibda jang qilishga ham o'rgatilgan edi. Ular kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo'lgandagina otdan tushib, piyoda jangchilarga aylanardilar.

Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo'linib, yengil va og'ir otliq qo'shinni tashkil etgan. Bundan tashqari, Sohibqironning xos navkarlari ham bo'lgan.

Uning lashkarlari tarkibida asosiy askarlardan tashqari, yana quyidagilar mavjud bo'lgan: 1) pontonchilar (ko'chma ko'priklar qurish ishlari bilan shug'ullanuvchilar) va kemachilar (ular asosan Amudaryo va Sirdaryoda kemachilik bilan shug'ullanuvchi kishilardan tanlab olingan; 2) naftandozlar (yunon olovini otuvchilar); 3) qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar bilan ishlashni biladigan jangchilar. (Amir Temur qamal qilgan ko'plab qal'alarning shunday qurollardan mohirona foydalanish natijasida qo'lga kiritilgani qo'shinning bu turi juda katta malakaga ega bo'lganidan dalolat beradi. Bu buyuk Temur yunonlar va rimliklar qal'alarni ishg'ol qilish uchun qo'llagan usullarni yaxshi bilganini ko'rsatadi. Amir Temur Boyazidga qarshi jangda grigoryan olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o'rnatib qo'llagan); 4) Sohibqiron tik qiyaliklarga chiqa oladigan, tog'li hududdagi janglarga ko'nikkan, tog' aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qismga ega bo'lgan. Bu qism jangchilari Amir Temurga daralar, tog' yo'llari va tog'larda joylashgan qal'alarni ishg'ol qilishda katta yordam bergan.

Sohibqiron Amir Temur urush boshlashdan avval oddiy otliq askarlar yoki yengil otliqlardan kamon, sadoq (o'q-yoyi bilan), qilich, arra, bigiz, igna, taroq, arqon, bolta, o'q uchun 10 ta poynak, qop, mesh (daryodan o'tish hamda suv olib yurish uchun ishlatiladigan charm qop) va 2 ta otga ega bo'lishni talab qilgan. Bundan tashqari, har 18 kishiga kigizdan ishlangan o'tov olinishi shart bo'lgan.

Saralangan jangchilar yoki og'ir otliqlar dubulg'a, qalqon, qilich, kamon va o'q-yoy bilan qurollangan. Ularning har biri 2 ta ot va har 5 kishi bitta o'tov olishi shart bo'lgan (saralangan jangchilarning qurol-anjomlari ko'p joyni egallagan

hamda ular maxsus xizmatkorlarga ega bo'lgan). Shuningdek, gurzi, oybolta, shamshir bilan qurollangan maxsus jangchilar bo'linmasi ham mavjud bo'lib, ular otlarining ustiga yo'lbars terisidan yopinchiq yopganlar.

Manbalarda keltirilishicha, Amir Temur qo'shinlari o'nliklar, yuzliklar, mingliklar, tumanlar (10 ming yoki 12 ming jangchidan iborat qo'shin) va boshqalarga bo'lingan va ularga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar boshchilik qilganlar. Amirlar 12 darajaga bo'lingan. Ular turli qabilalarga boshchilik qilib, darajasi, qabila tomonidan berilgan jangchilar soniga bog'liq bo'lgan.

Harbiy unvon berish. Har bir o'nlikda saralangan jangchilar orasidan mulohazakor va mard jangchi tanlab olinib, qolgan 9 jangchining roziligidan so'ng o'nboshi etib saylangan; o'nboshilardan esa faoliyati va qobiliyatiga qarab yuzboshi saylangan; 10 nafar yuzboshidan esa (harbiy ishlarda mohir va tajribaga ega amirlar farzandi yoki aslzodalar avlodidan bo'lgan jasur kishilardan) mingboshi tayinlangan. Har bir boshliqning o'rnini bosadigan yordamchisi bo'lgan.

Maosh tayinlash. Pul munosabatlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan ko'chmanchi xalqlar buyumlar qiymatini ot, qo'y, tuya va boshqa narsalar bahosi bilan o'lchaganlar. Shu tufayli Amir Temur jangchi maoshini shu jangchiga tegishli otning narxiga teng qilib belgilagan. A'lo darajadagi jangchi(bahodir)larning maoshi 2 tadan 4 tagacha ot narxiga teng bo'lsa, yo'lbooshilar 10 ta jangchi oladigan maoshni, yuzboshilar 2 ta o'nboshi oladigan maoshni, mingboshilar 3 ta yuzboshining maoshini olganlar. Tartibni buzgan jangchi o'z maoshining o'ndan bir qismidan mahrum etilgan.

Amirlar maoshi ularning darajasiga qarab ming va 10 minggacha ot narxi, Amir Temur avlodlariniki esa 12 minggacha ot narxi bilan belgilanib, ularga viloyat ham hadya etilgan. Ko'rinib turibdiki, Sohibqiron bobomiz qo'shin tuzish, ularni jang oldidan jangovar holatga keltirishda vaziyatni har tomonlama va to'g'ri baholagan, oqillik bilan qarorlar qabul qilgan. Buyuk sarkardaning qo'shinlarni

boshqarishga bunday jiddiy yondashishi uni doim g'alabaga yetaklagan.

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida shunday deydi: "...sardor aql-u tadbirkorlik bilan ish yuritib, shoshma-shosharlik qilmasin, chunki shoshqaloqlik shaytonning ishidir. Chorasi bo'lmagan ishga kirishmasin, chunki undan qutulib bo'lmaydi".

Amir Temurning harbiy yurishlari. Temurning Oltin O'rda qarshi 1395-yildagi yurishi. Amir Temur Movarounnahrni mo'g'ullar hukmronligidan ozod etib, bu qadimiy mamlakatda mustaqil davlat barpo etgan bo'lsada, hali mamlakatda barqaror tinchlik o'rnatilgan emas edi. Bir tomondan ayrim viloya amirlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlari notinch edi. Mo'g'uliston bilan Oq O'rda hukmdorlari Farg'ona vodiysining sharqi, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholini talon-taroj qilardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta'minlashga kata ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib bordi. 1370-yil kuzi va 1371-yil bahorida amir Zinda Chashmga zarba berib, Shibirg'on viloyati bo'ysundirildi. Balx va Toshkent viloyatlari ham Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Ammo Xorazm Oq O'rda hukmdorlariga tayanib, hanuz bo'ysunishdan bosh tortib kelardi. Xorazmni Amir Temur Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yo'l bilan hal etilmagach, Amir Temur Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Birinchi yurishi, 1371-yil yoz (iyul)ida Kat shahrini egallash bilan yakunlandi. Amir Temurning 1373-yil bahori va 1375-yil yozida Xorazm tomonga qilgan ikki yurishi natijasiz tugadi. Bu asnoda Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan ittifoq tuzib olgan Xorazm hukmdori Yusuf so'fi, uning yordamida Amir Temur davlati hududlariga bir necha bor yurish qilib, Qorako'l viloyati va Buxoro tumanlarini talon-taroj etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur

etdi. Bunday vaziyat shubhasiz, 1379-yilda Amir Temurni to'rtinchi marotaba Xorazmga qo'shin tortishga majbur etdi. Lekin, bu yurish ham avvalgilari kabi sulh tuzish bilan tugadi. Biroq shunga qaramay, Yusuf so'fi ilgari Xorazmning Chig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan janubi-sharqiy (Kot va Xiva shaharlari birga) qismini yana qaytadan bosib oldi. Amir Temur davlatiga nisbatan Yusuf so'fining bunday tajovuzkorona siyosati Xorazm ustiga Amir Temurning beshinchi marta yurish qilishiga sabab bo'ldi. 1388-yilda Xorazmning poytaxti vayron etilib, Amir Temur davlatiga bo'ysundirildi.

Mo'g'ulistonga yurishi. Bu orada Amir Temur Mo'g'uliston hokimi Qamariddin bilan ham to'qnashib qoldi, chunki bu davrda uning Movarounnahrda bo'lgan talonchilik xurujlari kuchayib ketgandi. 1370-1371-yillarda u Toshkent va Andijon ustiga bir necha bor bosqin qilib, talab qaytgandi. 1376-yilda esa Qamariddin hatto Farg'ona vodiysining talaygina qismini bosib oldi. Amir Temur mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga nisbatan bo'layotgan muttasil tahdidni bartaraf qilish uchun Qamariddinga jiddiy zarba berishga kirishadi. Yigirma yil (1371-1390) mobaynida Sohibqiron Mo'g'ulistonga etti marta yurish qilib, mo'g'ul hukmdorlari Anqoto'ra va Qamariddin ustidan g'alabalar qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda ichki tarqoqlik, o'zaro nizolar, shuningdek, Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'yib, ushbu hududda yashovchi el-u elat va xalqlarni yagona davlatga birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr aholisi taqdirida ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Eron va Kavkazga yurishi. Ammo, Amir Temur bu bilan qanoatlanmadi. Tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundiish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu davrda Oltin O'rda, Xuroson va Erondagi ijtioiy-siyosiy vaziyat uning uchun juda qo'l keldi. Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381-yilda u Hiroti egalladi. Sarx, Jom, Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson, xususan uning poytaxti Hirot strategic jihatdan muhim

ahamiyatga ega bo'lib, Eron, Iroq, Shom va boshqa mamlakatlarga o'tishda ko'prik vazifasini o'tardi. 1381-1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384-yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari bo'ysundirildi.

Temurning uch yirik urushlari. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda "uch yillik", "besh yillik" va "yetti yillik" urushlar nomi bilan mashhur. Uch yillik (1386-1388) harbiy yurishlar oqibatida JAnd, Ozarbayjon, Iroqning shimoli qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi.

Uch yillik yurish. Amir Temur shu bilan birga shimoli-g'arbdan, ya'ni Oltin O'rda tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To'xtamishga qarshi uch marta qo'shin tortishga majbur bo'ldi. U 1389-yilda Dizaq (Jizzax)ning Achchiq mavzeyida, 1391-yilning 18-iyunida (Hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida joylashgan Qunduzcha (Kondurcha) daryosida vodiysida-Qunduzcha shahri) va nihoyat, 1395-yilda (28-fevral) Shimoliy Kavkazda Terek daryosi bo'yida To'xtamish qo'shiniga qaqshatqich zarba beradi (Tarak daryosi bo'yidagi jang). To'xtamishga qarshi yasolni tuzishda Sohibqironning o'zi rahbarlik qiladi. U qo'shinning qismlarini jang maydoniga joylashtirishda yangi usulni qo'llaydi va ularni yetti qo'lga ajratadi. To'xtamishxon esa o'z sipohini besh qo'lga bo'ladi. Jang Amir Temurning to'la ustunligida o'tadi. Butunlay tor-mor etilgan To'xtamish qo'shini qoldiqlari Volgaga qadar ta'qib qilinadi. Amir Temur harbiy yurishlari oqibatida Quyi Idil (Volga) viloyatkari, Saroy Berka, Hojitarxon (Astraxan) kabi shaharlar vayron qilindi. Amir Temur To'xtamishni quvib Ryazan viloyatigacha bordi va Yelits shahrini ishg'ol qildi. Sh.A. Yazdiy Amir Temurning Moskva yurishini shunday ta'riflaydi: "Sohibqiron Maskavga sorikim, Rusning shaharlaridan erdi, tavajjuq qildi. Anda yetkonda nusratshi'or cheriki ul viloyatni (shahar atrofini) chobtilar va andag'I hokimlarini tobe qildi. Va cherikning

eliklariga sonsiz mol tushti...'^[5]. Bu urushda Azaq (Azov), Kuban va Cherkas yerlari ham kuchli aziyat chekdi. Qizig'I shundaki, Amir Temur Idilning Turotur kechivu bo'yida O'rusning o'g'li Quyrichoq o'g'lonni chaqirtirib unga qo'lga kiritilgan sobiq Jo'ji ulusini in'om etdi. Rossiya tarixchilari B.D.Grekov va A.Yu.Yakubovskiylarning yozishicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, faqat Markaziy Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, tarqoq Rus knyazliklarining birlashishi uchunham buyuk ahamiyat kasb etgan.

Besh yillik yurish. Shundan so'ng Amir Temur butun e'tiborini Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Hindiston yerlarini uzil-kesil zabt etishga qaratdi. U besh yillik (1392-1396) urush davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi, natijada muzaffariylar va jaloyiriylar sulolasining hukmronligiga barham berildi.

Hindistonga yurishi. Amir Temurning Hindiston ustiga yurishi qilgan urushi (1398-yil may-1399-yil mart) qariyb o'n bir oy davom etdi. Amir Temur Hindistondan katta o'lja, shu jumladan, 120 jangovar fil bilan qaytdi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga taqsimlab berildi, qolgani Kesh va Samarqand shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi.

Yetti yillik urush. Amir Temurning 1399-1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Xalab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albek), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Ajamning Ubiliston o'lkasi (Qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek, Turkiyaning katta qismi zabt etiladi.

Amir Temur va Boyazid Yildirim o'rtasidagi jang 1402-yilning 25-iyulida bo'lib o'tadi. Manbalarda ta'kidlanishicha Turkiya sultonining qo'shini taxminan 160 ming jangchidan iborat bo'lgan. Sohibqiron armiyasi o'zining an'anaviy jangovar tartibi yasolda harakat qiladi.^[6] Sipohning qirq qo'shun-qismdan tashkil etilgan humoyun markazi-qo'lga Sohibqiron bevosita qo'mondonlik qiladi. Shiddatli to'qnashuv keskin va uzoq davom etadi. Nihoyat Amir

Temur qismlarining siquviga bardoshi qolmagan sulton qo'shinlari chekina boshlaydi. Boyazid qo'mondonligidagi jangchilar so'nggi nafasgacha qarshilik ko'rsatishda davom etadilar. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g'alaba qozondi. Turkiya sultoni asir olindi. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar ham asir tushdilar. So'ng Amir Temur Anadoli yarim oralini egallab, O'rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi. So'ngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim bo'ldilar, Misr ham o'z itoatkorligini izhor etdi. Amir Temur Anqara, Nikeya, Bursa va Izmir shaharlarini egallab, Vizantiya va butun nasroniy olamining Boyazidga yig'ib bergan bojlaridan iborat katta boylikni qo'lga kiritdi. Birgina Bursa shahridan olingan oltin va javohirlarning o'zi kattagina karvonga yuk bo'lgan. Bandi qilingan Boyazid o'rdugohga olib kelingach, Amir Temur unga hurmat va ehtirom ko'rsatadi. Uning vafotidan so'ng (1403-yil 9-mart) esa vorislariga himmat ko'zi bilan boqib, ularga beqiyos muruvvatlar qildi. Chunonchi Boyazidning to'ng'ich o'g'li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinladi. Edirni (Adrianopol) shahri uning poytaxti etib belgilandi. Anadoluning shimoli-g'arbiy qismi suyurg'ol sifatida Iso Chalabiyga in'om qilinib, Bursa shahri uning poytaxtiga aylantirildi. Usmonli turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni Muso Chalabiyga topshirdi. Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo'lmagan. Chunki u Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmonli turklar davlatini saqlab qoldi va Boyazidning vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi. Shunday bo'lsada, Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1407) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar

davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Xitoyga yurishining boshlanishi. Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgach, 1404-yil 27-noyabrda 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning O'trorda vafoti (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Amir Temurning vafoti haqidagi xabar garchi avval sir tutilsa, ammo ko'p vaqt o'tmay bu noxush xabar mamlakat bo'ylab tarqalib ketadi. Amir Temurning jasadi Samarqandga olib kelib dafn qilinadi.

Amir Temurning harbiy yurishlari, jangu-jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo'lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz, ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Mamlakat ichki kuchlarini va mo'g'ullarning bir yarim asrlik hukmronligi natijasida bo'hronga uchragan iqtisodni tiklash uchun qulayroq sharoit vujudga keldi.

Amir Temur so'zlariga binoan siyosat bilan maqsadga erishish mumkin bo'lgan yerda qurol bilan harakat qilish noto'g'ridir. Urush boshlashdan avval dushman qo'shinlarining qurol ishlatish usullarini o'rganish, hujum va chekinish uchun qulay yo'llarni bilib olish, dushman qo'shinining ruhiyatiga hamda ularning hokimlari valashkarboshilari fazilatlariga ta'sir etish vositalarini topish kerak. Bugungi ishni ertaga qoldirmaslik kerak. Biror davlatda zolimlik, zo'ravonlik, jabr-zulm kuchli bo'lsa, Amir Temur fikricha, har bir adolatli hukmdor bunday

zo'ravon davlatga qarshi urush e'lon qilishi kerak va bunday sharoitda Tangrining o'zi unga madadkor bo'ladi.

Bosib olingan yerlarning kengayib borishi bilan Amir Temur qo'shinlari soni ham ortib boraverdi. Bosib olingan viloyatlardagi qurol ko'targan har bir kishi Amir Temur lashkariga qabul qilinardi va amaliga qarab maosh olardi. Jasur jangchilarning farzandlariga ham nafaqa to'lanardi, agarda ular jasorat ko'rsatsalar, yuqori mansablarga ko'tarilishlari ham mumkin edi. Dushman tomon qo'shinlari ham shu asosda xizmatga qabul qilinardilar.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 48 b
4. Somon yo'li. Amir Temur hayotiga bag'ishlangan risola. T. «Kamalak». 1992 y.
5. Amir Temur Kuragon «Zafar yo'li». T.: «Nur» 1992 y.
6. Ahmedov B. «Temur» T.: Fan. 1995 y.
7. Hamidov X. «Olis-yaqin yulduzlar» T.: «Cho'lpon». 1990 y.
8. A.Yu.Yakubovskiy. temur va temuriylar davrida Samarqand. Leningrad. 1993 g.
9. I.Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni T.: «Fan». 1968 y.